

QOYALAR HAM YIG'LAYDI" ASARIDA QO'LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI.

Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xidirova Iroda Xolmurzayevna

Ilmiy rahbar:

Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7625018>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning "Qoyalar ham yig'laydi" asari matnida qo'llanilgan shevaga oid so'zlar to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan bo'lib, asarda qo'llanilgan dialektizmlarning qaysi dialektizm turiga mansub ekanligi va asarga qanday ma'no nozikliklarini berib turganligi ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Dialektizmlar, leksik dialektizm, etnografik dialektizm, Grammatik dialektizm, lahja, sof leksik dialektizm, semantik dialektizm, fonetik dialektizm, estetik funksiya, morfologik va sintaktik dialektizm.

O'zbek tili ko'p dialektli til hisoblanadi. Bu uning murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, bugungi o'zbek millati o'tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega ekanligi bilan belgilanadi. O'zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli-tuman shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin. Bular : 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o'g'uz lahjasi.[2.12] YE.D.Polivanov o'zbek tilining ko'p dialektli ekanligini nazarda tutib: "O'zbek milliy tili (o'zbek lahjalarining bir butunligi, yaxlitligi sifatida) yagona tizimning, aslida hech qachon amalda bo'lmagan o'zbek bobo tilining dialektologik parchalanish yo'li bilan emas, balki farqlanuvchi til tizimlarining birlashuvi yo'li bilan paydo bo'lgan" – degan edi.

Badiiy asarlarda qo'llaniladigan dialektizmlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadilar. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aks ettirish bilan birga "badiiy nutqda" muayyan estetik funksiya bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qiymat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanilishi bilan bog'liqdir.[3.24]

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik va Grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilganligini kuzatish mumkin. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Leksik



dialektizmlar ham o'z navbatida ichki guruhlariga bo'lib o'rganiladi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan ur-odatlarining nomlari etnografik dialektizmlar deb yuritiladi. Bunday so'zlar tasvirning realligini ta'minlaydi. Biror so'z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo'lib, shevada adabiy tilda bo'lmagan ma'nosi bilan qo'llana oladigan so'zlar semantik dialektizmlar deb yuritiladi.[4.62;5.62] Grammatik dialektizmlarning ham morfologik va sintaktik deb ataluvchi ichki guruhlari mavjudligini qayd etish mumkin.[4.63;5.63]

1.Tong azonda hovlidan to'rt it bilan chiqib ketgan Ernazar polvon kechki peshinga yaqin Ko'ktoyning chalao'lik jasadini otga o'ngarib qaytdi.

O'ngarmoq: adabiy tildagi shakli – ortmoq; dialekt turi - Sof leksik dialektizm.

2.U peshvoz chiqqan o'g'illariga xo'mrayib boqarkan, itga birinchi bo'lib qo'l cho'zgan ikkinchi o'g'li Ko'charga dag'al ohangda, xazr bo'l, dedi-da, boshqa biriga dori xaltani opchiq, degan ma'noda im qoqdi.

Opchiq: adabiy tildagi shakli - olib chiq; dialekt turi - fonetik dialektizm;

Im qoqdi: adabiy tildagi shakli - nazar tashladi; dialekt turi - sof leksik dialektizm.

3.Keyin yenglarini ximarib qo'llarini oldinga cho'zdi.

Ximarib: adabiy tildagi shakli – shimarib; dialekt turi – fonetik dialektizm

4.Kimdir ob-tobaga yugurdi. Ernazar polvol itdan ko'z uzmay qo'llarini yuvdi.

Ob-tobaga: adabiy tildagi shakli - obtova; dialekt turi - fonetik dialektizm.

5.Otaning kayfi tirriqligi yuzidagi har bir mo'ydan aks etib turtardi.

Mo'y - leksik dialektizm.

6.Yiqitganlarni alqaydi, yiqilganlarning otasini siquvga oladi.

Alqaydi: adabiy tildagi shakli – olqamoq; dialekt turi - fonetik dialektizm.

7.Somsaxonadagi juvonlardan birini ulingizga ikkinchi xotin qip ijablamasangiz, deb qo'rqaman.

Ulingizga: adabiy tildagi ko'rinishi - o'g'lingizga; dialekt turi – fonetik dialektizm.

Qip: adabiy tildagi ko'rinishi – qilib; dialekt turi – fonetik dialektizm.

Ijablamasangiz – sof leksik dialektizm.

8.E, buytib achuvlanmang, Ernazarvoy.

Buytib: adabiy tildagi ko'rinishi - bunaqa; dialekt turi – fonetik dialektizm.

Achuvlanmang: adabiy tildagi ko'rinishi – achchiqlanmang; dialekt turi – fonetik dialektizm.

9.Achuvingizdan hatto eshagim qo'rqib ketayapti

Achuv: adabiy tildagi shakli – achchiq; dialekt turi – fonetik dialektizm.



10.Endi otni chetga oling, yo'ldan qomaylik.

Qomaylik: adabiy tildagi shakli – qolmaylik; dialekt turi – fonetik dialektizm.

11.Ernazar polvon ortiqcha so'z qotib, ortiqcha ijkilashib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi.

Ijkilashmoq: adabiy tildagi shakli – tortishmoq; dialekt turi – sof leksik dialektizm.

12.Sami cho'loqning buytiblar irshayishiga qaraganda, bari chinga o'xshaydi.

Buytib: adabiy tildagi shakli – bunaqa; dialekt turi – fonetik dialektizm.

13.Emasam, og'iz botirlik qilishga hayiqardi.

Emasam: adabiy tildagi shakli – bo'lmasa; dialekt turi – Sof leksik dialektizm.

14.Azaldan itday simanglab, yo'q yerdagi narsalarning isini olib yuradi u.

Simanglamoq: adabiy tildagi shakli – tentiramoq, sanqib yurmoq; dialekt turi – sof leksik dialektizm.

15.Yaxshisi uldi kutayin. Betma-bet gaplashay. Chin bo'sa...

Uldi: adabiy tildagi shakli – o'g'ilni; dialekt turi – Grammatik(sintaktik) dialektizm

16.O'g'lidan hanuz darak yo'q. Yuqori hovlidagi harakatni sezgan kelini yolg'izoyoq so'qmoqdan shu tarafga o'rlamoqda.

O'rlamoq: adabiy tildagi shakli – chiqmoq; dialekt turi – sof leksik dialektizm.

17.Itim qani, bovo?

Bovo: adabiy tildagi shakli – bobo; dialekt turi – fonetik dialektizm.

18.Iting tovda qoldi, bolam.

Tovda: adabiy tildagi shakli – tog'da; dialekt turi – fonetik dialektizm.

19.O'tirik, bolaning qalin labalari cho'chchaydi.

O'tirik– yolg'on – sof leksik dialektizm .

20.Ko'ktoy sho'xlik qilaman deb yiqilib tushgandi, opqaytdim.

Opqaytdim: adabiy tildagi shakli – olib qaytdim; dialekt turi – fonetik dialektizm.

21.Birovning ulapasi yengingga yamoq bo'larmidi?

Ulapa – yirtish – sof leksik dialektizm.

22.Qolganlari ayuvni ko'rishi bilan chotini ho'llab qo'ydi.

Ayuvni: adabiy tildagi shakli – ayiqni; dialekt turi – fonetik dialektizm.

Chot: adabiy tildagi shakli – ikki son orasi; dialekt turi – sof leksik dialektizm

23.Achuvim qo'zisa, hammangdan zo'r bo'p ketaman deydi-ku doim.

Achuv: adabiy tildagi shakli – achchiq; dialekt turi – fonetik dialektizm.

Bo'p: adabiy tildagi shakli – bo'lib; dialekt turi – fonetik dialektizm.

24.Bu Karimboydi ulidan yiqilibsan deb eshitdim.



- Karimboydi: adabiy tildagi shakli – Karimboyni; dialect turi – Grammatik(sintaktik) dialektizm.
- Ulidan: adabiy tildagi shakli – o'g'lidan; dialect turi – leksik dialektizm.
- 25.G'aybulla bovong ko'rinmaydi?
- Bovong: adabiy tildagi shakli – bobong; dialect turi – fonetik dialektizm.
- 26.Ho'kizday bo'p, buytib yurishing nimasi?
- Bo'p: adabiy tildagi shakli – bo'lib; dialect turi – fonetik dialektizm.
- Buytib: adabiy tildagi shakli – bunaqa; dialect turi – fonetik dialektizm.
- 27.Yigitday bo'p senam bir bel tutgin!
- Bo'p: adabiy tildagi shakli – bo'lib; dialect turi – fonetik dialektizm.
- Senam: adabiy tildagi shakli – sen ham; dialect turi – fonetik dialektizm.
- 28.Odamni buytiblar yer qima endi!
- Buytiblar: adabiy tildagi shakli – bunaqa; dialect turi – fonetik dilaektizm
- Qima: adabiy tildagi shakli – qilma; dialect turi – fonetik dialektizm.
- 29.Bundan Turkman polvonning mehri iydi.
- Iydi: adabiy tildagi shakli – uyg'ondi; dialect turi – sof leksik dialektizm.
- 30.Qiliq qimay, tuzuk olish,otangni jiligiga...
- Qimay: adabiy tildagi shakli – qilmay; dialect turi – fonetik dialektizm.
- 31.Min ulim! – Ota bot qistadi.
- Ulim: adabiy tildagi shakli – o'g'lim; dialect turi – leksik dialektizm.
- 32.Ming yillik alami bor odam o'tirik aytarmidi?
- O'tirik: adabiy tildagi shakli – yolg'on; dialect turi – sof leksik dialektizm.
- 33.O'troqlashsin, tilini bir qarich qimasa, yolg'iz boshimni shartta kesib tashlayman.
- Qimasa: adabiy tildagi shakli – qilmasa; dialect turi – fonetik dialektizm.
- 34.Qishloqchilikda, qishloqchilik, emasam, enalaringni uchqo'rg'ondan ko'rsatardim.
- Emasam: adabiy tildagi shakli – bo'lmasa; dialect turi – fonetik dialektizm.
- Ena : adabiy tildagi shakli – ona; dialect turi – leksik dialektizm.
- 35.Davring kepti, burdalayver yoqamni.
- Kepti: adabiy tildagi shakli – kelibdi; dialect turi – fonetik dialektizm.
36. Raykom bovo toqqa milisa tashlagan.
- Bovo: adabiy tildagi shakli – bobo; dialekt turi – fonetik dialektizm.
- 37.Tepa nima desa,shuni bajaraman. Emasam, menga zarilmi, qaynoq cho'lda tuproq kechib.
- Emasam: adabiy tildagi shakli – bo'lmasa; dialect turi – fonetik dialektizm.
- Zaril: adabiy tildagi shakli – zarur; dialect turi – fonetik dialektizm.

38.Endi uni ko'rib kunda bir o'ladigan bo'pman-da. Rahmat, jo'ra!

Bo'pman-da: adabiy tildagi shakli - bo'libmanda; dialect turi - fonetik dialektizm.

Jo'ra: adabiy tildagi shakli - o'rtoq; dialect turi - leksik dialektizm.

39.Endi uning qarshisida burungi mag'rur Sami rais emas, aft-angorini tuk bosgan, ozg'in va maymoq kimsa - Sami cho'loq titrab turardi.

Burungi: adabiy tildagi shakli - avvalgi; dialect turi - sof leksik dialektizm.

40.Mendan bekorga domangir bo'layapsiz.

Domangir bo'lmoq: adabiy tildagi shakli - xafa bo'lmoq; dialect turi - sof leksik dialektizm.

41.Boshini bir yon burib hovli yonida qur tikkan o'g'illari tomon razm soldi.

Qur tikmoq: adabiy tildagi shakli - o'tirmoq; dialect turi - sof leksik dialektizm.

42.Boboy nega to'nglab o'tiribdi?

To'nglamoq: adabiy tildagi shakli - xafa, norozi; dialect turi - sof leksik dialektizm.

43.Boya negadir seni so'roqladi. G'azabiga uchrab, tag'in archazorda uloqib yurma.

Uloqmoq; adabiy tildagi shakli - uzoqlashib ketmoq; dialect turi - sof leksik dialektizm.

44.Sami cho'loq eshagini dikonglatib, adoqdagi tor ko'chaga qayrilmoqda edi.

Dikonglatmoq: adabiy tildagi shakli - dikanglatmoq; dialect turi - fonetik dialektizm.

Adoq: adabiy tildagi shakli - quyi tomon; dialect turi - sof leksik dialketizm.

45.Achchuvimni chiqargan kuni solaman.

Achuv : adabiy tildagi shakli - achchiq; dialect turi - fonetik dialektizm.

46.Vaqtida men qavatingizda bo'ganman, nega endi siz yo'q deysiz-a, Ernazarvoy? - dedi.

Qavat: adabiy tildagi shakli - yoningizda; dialect turi - sof leksik dialektizm.

Bo'ganman: adabiy tildagi shakli - bo'lganman; dialect turi - fonetik dilaektizm.

47.Tepib yaxshi ish qigan ekanman, emasam, turmada yolg'iz o'zingiz zerikib qolardingiz.


Qigan: adabiy tildagi shakli - qilgan; dialect turi - fonetik dialektizm.

Emasam: adabiy tildagi shakli - bo'lmasa; dialect turi - leksik dialektizm.

48.Oshna degani shu paytda qayishmasa, qay paytda qayishadi?

Oshna: adabiy tildagi shakli - o'rtoq,do'st; dialect turi - sof leksik dialektizm.

Qayishmoq: adabiy tildagi shakli - yordam bermoq; dialect turi - sof leksik dialektizm.



49. Agar hov birda ayuvning changalidan meni qutqazmaganingizda, G'aybulla chol yurarmidi hozir.

Ayuv: adabiy tildagi shakli- ayiq; dialekt turi – fonetik dilaektizm.

50. Yotardi sovuq yerning bovrída suyaklari chirib.

Bovrida: adabiy tildagi shakli – bag'rida; dialekt turi – fonetik dialektizm.

51. Avvalgi topganingiz ham qo'ynimda olti kun yotdi-yotmadimi, bor pulimni o'marib qochivordi.

Qochivordi: adabiy tildagi shakli – qochib ketdi; dialekt turi – fonetik dialektizm.

52. Palagi toza deyishuvdi-da, - Ernazar polvon xijolat tortadi, - bunaqaligini qaydan bilibman.

Deyishuvdi: adabiy tildagi shakli – deyishgandi; dialekt turi – fonetik dialektizm.

Qaydan: adabiy tildagi shakli – qayerdan; dialekt turi – fonetik dialektizm.

53. Ularning gurungi mana shu tarzda goh hud, goh behud davom etadi.

Gurungi: adabiy tildagi shakli – suhbat; dialekt turi – sof leksik dialektizm.

54. Qo'rqitma ko'p, nima qipmanki, buncha osmondan kelasan?

Qipmanki: adabiy tildagi shakli - qilibmanki; dialekt turi – fonetik dilaektizm.

55. Yomonligidan burnog'i yili ko'chki tagida qolib o'ldi.

Burnog'i: adabiy tildagi shakli – o'tgan yili; dialekt turi- sof leksik dialektizm

56. Mashinada bizni qamoqqa opketsin, deb yo'lni kengaytirgan ekanmiz-da, a, jo'ra!

Opketsin: adabiy tildagi shakli – olib ketsin; dialekt turi – fonetik dialektizm;

57. Do'stdan yolchiganman, deb o'yladi.

Yolchimoq: adabiy tildagi shakli – yalchimoq; dialekt turi – fonetik dialektizm.

58. Buytib yurmay, bola-chaqangni ko'rib kel, ulim.

Buytib: adabiy tildagi shakli – bunaqa; dialekt turi – fonetik dilaektizm.

59. Otangni ko'zi ochiqligida bunday demasding, endi enani pisand qimaysanda-a?

Ena: adabiy tildagi shakli – ona; dialekt turi – fonetik dilaektizm.

Qimaysanda: adabiy tildagi shakli – qilmaysanda; dilaekt turi – fonetik dialektizm.

60. Yaramas, otiniyam o'zgartirib opti.

Ot: adabiy tildagi shakli – ism,nom; dialekt turi – leksik dilaektizm.

Opti: adabiy tildagi shakli – olibdi; dialekt turi – fonetik dilaektizm.

62. O'sar bo'ynidagi sirtmoqni osongina itqitib tashladi.

Itqitmoq: adabiy tildagi shakli – irg'itmoq; dialekt turi – sof leksik dialektizm.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamog'imiz joizki, "Qoyalar ham yig'laydi" asarida qo'llanilgan har bir dialektizmining o'rne nihoyatda bo'lakdir. Yozuvchi asarda



keltirilgan dialektizmlar orqali nafaqat qahramonning xarakteri, uning atrofdagilarga munosabatini, balki shu jamiyat tuzumi va ahvolini ham ochib berishga harakat qilgan. Asar matni tarkibida keltirilgan dialektizmlarning tahlili jarayonida statistik tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu tahlil metodiga ko'ra asar matnida jami 82 o'rinda dialekt so'zlar qo'llanilganligi aniqlandi. Shuningdek, keltirilgan dialektlardan 52 o'rinda qo'llanilgani - fonetik dialektizm, 24 o'rinda qo'llanilgani - sof leksik dialektizm va asar matnida eng kam, ya'ni 2 o'rinda qo'llanilgan dialekt turi sifatida Grammatik(sintaktik) dialektizm ekanligi aniqlandi. Aniqlanganiga ko'ra asar matni tarkibida eng ko'p qo'llanilgan dialektizmlar sifatida fonetik dialektizmlarni olishimiz maqsadga muvofiq ekan. Matn tahlil qilish tamoyillaridan biri hisoblangan makon va zamon tamoyiliga muvofiq tarzda asar matnida qo'llanilgan har bir so'z, ibora, dialektlar asar mazmunini, shaklini, makonini, zamonini ro'y-rost ochib berishga ximat qiladi. Yozuvchining ham o'z asari matnida dialekt so'zlarini qo'llashining asosiy va birdan bir maqsadi ham kitobxonni ko'z oldida asar voqealari tasvirlanayotgan hududni, bundan tashqari qahramonlarning ichki hissiyotlari, qaysi joyga mansubligini ko'rsatib berish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Norqobilov. Bekatdagi oq uycha(qissalar va hikoyalar): "Qoyalar ham yig'laydi"(qissa). – Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000.
2. R. Sayfullayeva.,B.Mengliyev.,M.Qurbonova.,G.Boqiyeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – 181 b.
3. X. Abdurahmonov.,N.Mahmudov, So'z etikasi. – Toshkent "Fan", 1981.
4. M. Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.
- 5.M.Qurbonova., M. Yo'ldoshev. Matn tilshunosligi. – Toshkent "Universitet", 2014.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

